SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 391-7-103-Q/24 | Samarqand tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori ijrosini ta’minlash, Samarqand tuman Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi 4-son yig‘ilish bayoni va Samarqand tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 8-oktyabrdagi 669-chiqish sonli xatini inobatga olib, tuman hududida joylashgan korxonalarda ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga, 2025-yilda Samarqand tumanida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida yig‘ma ma’lumot 2-ilovaga, “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga

muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxona, tashkilot va muassasalarda 2025-yilga belgilangan kvota ish o‘rinlari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi qarorga asosan tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 295 kishini tashkil etadigan 3,5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

- Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 11,9 foiz – 35 kishi,

- O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasasini tugatgan yoshlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilar uchun 22,7 foiz – 67 kishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 3,1 foiz –9 kishi;

- Nogironlar uchun 27,5 foiz -81 kishi;

- Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 4,1 foiz -12 kishi;

- Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sundagi majburiy choralariga tortilgan shaxslar uchun 5,8 foiz -17 kishi;

- Odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 3,1foiz - 9 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

- Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar shaxslar uchun 8,5 foiz – 25 kishi;

- Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 13,6 foiz – 40 kishi;

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki

band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishga qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdorda ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31,05,2019 yil) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida subsidiyalar ajratilishi” inobatga olinsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (A.Gaybiyev) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta′minlasin.

8. Tuman hokimining 2023-yil 1-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 270-7-103-Q/23- sonli qarori 2024-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.X.Usmanov**

Samarqand tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
391-7-103-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Aholi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

1	Ganiyev Firdavs	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari: ***ishchi guruh rahbari***
2	Gaybiyev Amirjon	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i: ***ishchi guruh rahbar o‘rinbosari***
3	Baxriyev Ro‘zibek	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bosh mutaxasissi: ***ishchi guruh kotibi***
4	To‘xtayev Sodiq	O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Samarqand tumani bo‘limi boshlig‘i: ***ishchi guruh azosi***
5	Aslamov Suxrob	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi davlat mehnat huquq inspektori: ***ishchi guruh azosi***

Izoh: *Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tganda yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda uning o‘rniga tayinlangan shaxslar ishchi guruh a’zosi hisoblanadi.*

Samarqand tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
391-7-103-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025-yilda Samarqand tumanida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida YIG‘MA MA’LUMOT

№	Hudud nomi	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar soni	Kelgusi yilga zahiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shundan:								
				O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar
A	*B*	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*
1	**Samarqand tuman**	**41**	**295**	**35**	**67**	**9**	**81**	**12**	**17**	**9**	**25**	**40**

Samarqand tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
391-7-103-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlariningeng kam sonini belgilashi va zaxiraga qo‘yishi lozim bo‘lgan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar

RO’YXATI

	Ish o‘rinlarini zahiralash belgilangan korxona va tashkilotlar nomi	Korxona va tashkilotlar STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar soni	Jami zaxiralanishi belgilangan ish o‘rinlari soni	O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar
1	Samarqand viloyat tug‘ruq majmuasi	201008084	441	22	3	4	1	5	2	1	1	3	2
2	Samarqand tuman tibbiyot birlashmasi	200776137	2658	57	6	23	1	10	2	1	1	5	8

3	"Maxsus suv qurulish invest" MCHJ	301698705	333	15	2	2	1	2		2		2	4
4	"Gulobod mebel" MCHJ	204751514	223	12	3			2	1	1		2	3
5	"Badal qurulish maxsulot savdo" xususiy korxonasi	300983842	212	12	2	2	1	2	1	1		1	2
6	Samarqand tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi Davlat muassasasi	200775906	124	7	1	1		2	1	1			1
7	"Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi	200777024	108	6		1		5					
8	"Binokor" MCHJ	200777602	86	5	1	1	1			1			1
9	"Mironqul story servis" MCHJ	302488618	71	4		1			1	1			1
10	"Mondeluks kitchen" MCHJ	306226228	69	4	1	1		1					1
11	"Abdulaziz metall servis" MCHJ	303050197	48	2						1			1
12	"Samarqand arya baron" MCHJ	309892941	48	2	1			1					
13	Samarqand Davlat tibbiyot universiteti huzuridagi reablitologoya va sport tibbiyoti ilmiy-tadqiqot instituti davlat muassasasi	200973422	46	2		1		1					
14	Samarqand tuman Irigatsiya bo‘limi	207264943	45	2		1		1					
15	"Muzmas savdo" MCHJ	301678524	42	2				1				1	
16	"Rushana plast technology" MCHJ	304561669	31	1				1					
17	"Talibarzu tekstil mebel" MCHJ	301998743	30	1				1					
18	"Tesco plus" MCHJ	300465971	28	1				1					
19	"Nasiba paranda" MCHJ	300912684	29	1				1					
20	O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi Samarqand viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi Samarqand tuman bo‘limi	200776968	80	4	1			2			1		
21	"Sam rin trade" MCHJ	204723373	51	3				2				1	
22	"Amir-ul-baxr-vmg" MCHJ	205249867	88	5	1	1		2					1
23	Agromir MCHJ qo‘shma korxonasi	302517650	1148	23	3	2	1	4		2	1	3	7

24	"Stekloplastik" MCHJ	200972559	305	13	1	4	1	4			1	1	1
25	Navobod naslli parranda fermer xo‘jaligi	301447185	207	12	1	1	1	2	1	1	1	2	2
26	"Asia karpet textille" MCHJ	301993093	175	10	1	1		4			1	1	2
27	Samarqand tuman obodonlashtirish departamenti	206938285	146	8	1	1		1	1	3			1
28	Samarqand viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi	201007839	540	27	4	10	1	7	1	1	1	1	1
29	"Sam Rafoat tekstille" MCHJ	302051419	500	13	2	2		4	1		1	2	1
30	1-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049576	36	2		1		1					
31	3-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023783	34	2		1		1					
32	4-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207022777	33	1				1					
33	5-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207004600	31	2		1		1					
34	6-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049520	27	1				1					
35	7-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049394	27	1				1					
36	8-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049591	28	1				1					
37	10-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049584	34	2		1		1					
38	11-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049497	34	2		1		1					
39	14-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207023775	36	2		1		1					
40	24-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049480	25	1				1					
41	27-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207049458	38	2		1		1					
Jami			8295	295	35	67	9	81	12	17	9	25	40